XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR KENGASHI QARORI

2023 - yil 13 - fevral VI-79-21-7-107-K/23 Samarqand shahar hokimligi

Samarqand shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

“2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 22-dekabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2022-yil 27-dekabrda ma’qullangan) va xalq deputatlari shahar Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi VI-77-251-7-107-K/22-sonli “Samarqand shahrining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asoslanib, shuningdek, shahar hokimligiga boshqarma va tashkilotlardan, fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarni inobatga olib hamda shaharda bir qator ijtimoiy va iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish maqsadida shahar mahalliy budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish yuzasidan shahar hokimi o‘rinbosarlari (A.Egamov, R.Olimov, O.Xaitov, Z.Saidova) va shahar moliya bo‘limi (B.Mamadaliyev)ning 2023-yil 24-yanvardagi bildirishnomasini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashining navbatdagi VI chaqiriq, LXXIX sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Shahar hokimi o‘rinbosarlari (Egamov, Olimov, Xaitov, Saidova) va shahar moliya bo‘limi (Mamadaliyev) ning 2023-yil 24-yanvardagi shahar mahalliy budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar mahalliy budjetining 2023-yil 1-yanvar holatiga hosil bo‘lgan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan jami **7 ta** tadbirlar uchun **847 408,0** (sakkiz yuz

qirq yeti million to‘rt yuz sakkiz) **ming so‘m** mablag‘lar ilovaga muvofiq ajratilsin.

3. Shahar hokimligi bosh hisobchisi (Tursunova)ga, shahar hokimligi moliya bo‘limi (Mamadaliev)ga ajratilgan mablag‘lardan hisob-kitoblarga asosan maqsadli foydalanish yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi moliya bo‘limi (Mamadaliev)ga shahar mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish, shahar g‘aznachilik bo‘linmasi (Amirov)ga mablag‘larni belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sayfiddinova) va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Egamov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining
2023 yil 13 fevraldagi
VI-79-21-7-107-K/23-son qaroriga
1-ilova

Shahar daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag`lardan amalga oshiriladigan tadbirlar HISOB-KITOBI

T/p	Mablag‘ ajaratiladigan tashkilotlar nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Asos bo‘luvchi xujjatlar	Ajratiladigan mablag‘ miqdori (ming so‘m)
1	Shahar hokimligi moliya bo‘limiga	Shahar hokimligi moliya bo‘limi xodimlariga yetarli shart sharoitlarni yaratish va ular mehnatini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun 2023-yilning yanvar-mart oylari uchun oylik ish haqi miqdorining 100 foizigacha bo‘lgan miqdorda moddiy rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar moliya bo‘limi (B.Mamadaliyev)ning 2023-yil 24-yanvardagi bildirishnomasi	84 802,5
2	Shahar hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 125, 423, 440-moddalariga muvofiq jismoniy shaxslardan undiriladigan yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha to‘lovlar to'liqligicha shahar mahalliy budjetiga yo‘naltirilishini inobatga olib, mazkur soliqlardan mavjud soliq qarzini ularning mol-mulki hisobidan undirish yuzasidan Fuqarolik sudlariga ariza kiritishda pochta xarajatlari bilan bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar soliq inspektsiyasi (Z.Sindarov)ning 2023-yil 23-yanvardagi 25-02820-sonli murojaati	50 000,0

3		Shahar hokimligi apparati, Xalq qabulxonasi va mahallabay ishlash markazi xodimlariga yetarli shart sharoitlarni yaratish va ular mehnatini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun 2023-yilning yanvar-mart oylari uchun oylik ish haqi miqdorining 150 foizigacha bo‘lgan miqdorda moddiy rag‘batlantirish bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimi o‘rinbosarlari (A.Egamov, R.Olimov, O.Xaitov, Z.Saidova)larning 2023-yil 24-yanvardagi bildirishnomasi	392 409,5
4		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-16-aprel kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida va viloyat faollari ishtirokida o‘tkazilgan yig‘ilishda berilgan topshiriqlari bo‘yicha 20-sonli bayoniga asosan Samarqand shahar “Shirin” massivida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli turar va noturar binolarni belgilangan tartibda buzish va hududda tozalash ishlarini olib borish maqsadida fuqarolar bilan o‘zaro kelishuvni amalga oshirish imkoni bo‘lmaganligi sababli FIB Samarqand shahar sudiga da’vo ariza kiritish bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimligi bosh yuriskonsul’ti (B.Toyirov)ning 2023-yil 24-yanvardagi bildirishnomasi	50 000,0
5		O`zbekiston Respublikasi hududiga Volgabo`yi hududlaridan 9-18-yanvar kunlari anomal sovuq kirib kelishi munosabati bilan Samarqand shahar hokimligi tomonidan tashkil etilgan kuz-qish mavsumida tashkil qilingan shtabida, shahar elektr tarmoqlarida tashkil etilgan shtabda va elektr energiyasida kuzatilayotgan uzilishlar bo‘yicha murojaatlarni soha hodimlari bilan joyiga chiqib hal qilish maqsadida yo`nalishlarga (avtomashinada) amaliy yordam berish uchun biriktirilgan shahar hokimligi, shahar Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi xodimlarini hamda hokim yordamchilarini (jami 21 nafar, har biriga 5,0 mln so‘mdan) moddiy rag`batlantirish bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (U.Boltayev)ning 2023-yil 24-yanvardagi bildirishnomasi	110 000,0
6		Shahar hokimligi binosida xizmat vazifasini amalga oshirayotgan Milliy Gvardiya xodimlarining 2022-yil noyabr-dekabr oylari hamda 2023-yil yanvar oyida amalga oshiradigan xizmatlari jarayonida to‘lanishi lozim bo`lgan ish haqi bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimligi bosh hisobchisi (D.Tursunova) 2023-yil 24-yanvardagi bildirishnomasi	146 714,5
7		Shahar hokimligi "mahsus xona"sini 2022-yil iyul-dekabr oylarida qo‘riqlash bilan bilan bog‘liq xarajatlarga		13 481,5
	Jami			**847 408,0**